



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: **Uzbek**, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati

Xalmatova Dilobod Alimjanovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrası katta
o'qituvchisi

Mirzaaxmedov Madina Baxrom qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti Pedagogika
yo'nalish, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'zbek xalqining milliy urf-odatları, an'anaları va marosimlari xalqning asrlar davomida shakllangan boy ma'naviy merosini ifodalaydi. Ular nafaqat ijtimoiy hayotda, balki tarbiyaviy jarayonda ham muhim o'rin tutadi. Har bir marosim – bola tug'ilishi, to'y, hosil bayramlari yoki diniy udumlar – jamiyatda birdamlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, beshik to'yi, fотиha to'yi, Navro'z, hayit marosimlari kabi udumlar yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda ajdodlarga hurmat, vatanga sadoqat, odob-axloq me'yorlarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ushbu an'ana va urf-odatlarda xalqning turmush tarzi, axloqiy qarashlari, iymon-e'tiqodi mujassam bo'lib, ular yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali vositasi hisoblanadi. Milliy marosimlar orqali oila mustahkamlanadi, mahalla va qo'shnichilik aloqalari rivojlanadi, jamiyatda birlik va totuvlik qaror topadi. Shu bois o'zbek xalqining an'anaları nafaqat madaniy meros, balki tarbiyaviy maktab sifatida ham qimmatlidir.

Kalit so'zlar: O'zbek xalq an'anaları, urf-odatlar, milliy marosimlar, ma'naviy meros, tarbiyaviy ahamiyat, beshik to'yi, fотиha to'yi, Navro'z, hayit marosimlari, qadriyatlar, ijtimoiy birlik, odob-axloq, oila tarbiyasi, mahalla, xalq pedagogikasi.

Abstract: The national customs, traditions, and ceremonies of the Uzbek people represent the rich spiritual heritage formed over centuries. They play a significant role not only in social life but also in the educational process. Each ceremony—whether related to childbirth, weddings, harvest festivals, or religious rituals—contributes to strengthening unity, compassion, mutual respect, and tolerance within society. In particular, customs such as the cradle ceremony, engagement ceremony, Navruz, and Eid rituals are essential in raising the younger generation in the spirit of national values, fostering respect for ancestors, loyalty to the homeland, and adherence to moral and ethical standards. These traditions and customs embody the lifestyle, ethical views, and faith of the people, serving as an effective means of preparing youth for social life. National ceremonies also strengthen family ties, develop neighborhood and community relations, and ensure unity and





harmony in society. Therefore, the traditions of the Uzbek people are not only cultural heritage but also a valuable school of upbringing.

Keywords: Uzbek national traditions, customs, national ceremonies, spiritual heritage, educational significance, cradle ceremony, engagement ceremony, Navruz, Eid ceremonies, values, social unity, ethics and morality, family upbringing, mahalla, folk pedagogy.

Аннотация: Национальные обычаи, традиции и обряды узбекского народа отражают богатое духовное наследие, сформировавшееся на протяжении веков. Они занимают важное место не только в общественной жизни, но и в процессе воспитания. Каждый обряд — будь то рождение ребёнка, свадьба, праздник урожая или религиозные церемонии — служит укреплению единства, доброты, взаимного уважения и толерантности в обществе. Особенно такие обычаи, как обряд укладывания ребёнка в колыбель (бешик-тўй), обряд помолвки (фотиха-тўй), праздник Навруз, религиозные праздники (Хайит) играют огромную роль в воспитании молодого поколения в духе национальных ценностей, уважения к предкам, преданности Родине, формировании норм нравственности и этикета. В этих традициях отражаются образ жизни народа, его моральные взгляды, вера и убеждения, что делает их действенным средством подготовки молодёжи к социальной жизни. Через национальные обряды укрепляется семья, развиваются отношения в махалле и соседстве, утверждаются единство и согласие в обществе. Поэтому традиции узбекского народа представляют собой не только культурное наследие, но и своеобразную воспитательную школу.

Ключевые слова: узбекские народные традиции, обычаи, национальные обряды, духовное наследие, воспитательное значение, бешик-тўй, фотиха-тўй, Навруз, праздники Хайит, ценности, общественное единство, нравственность, семейное воспитание, махалля, народная педагогика.

Kirish. Har bir xalqning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar alohida o'rin tutadi. Ular asrlar davomida shakllanib, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy qarashlarini o'zida mujassam etgan. O'zbek xalqining milliy an'analari inson hayotining deyarli barcha bosqichlarini qamrab oladi: bola tug'ilishi, voyaga yetishi, nikoh, hosil bayramlari, diniy marosimlar va jamiyat hayotidagi boshqa muhim jarayonlar shu urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq. Ana shu jarayonlarda xalqning asriy tajribasi, hayotiy donoligi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlari yosh avlod ongiga singdirib boriladi. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki milliy an'analar – bu xalqning ma'naviy ildizi, o'zligini anglash va milliy g'ururni shakllantirish





vositasidir. Shu jihatdan, beshik to'yi, fotiha to'yi, Navro'z, hayit marosimlari kabi qadimiy udumlar nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki tarbiyaviy maktab sifatida yoshlarni odob-axloq, mehr-oqibat, insonparvarlik, ajdodlarga hurmat va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining urf-odatlari va marosimlari ijtimoiy hayotda birdamlikni mustahkamlash, qo'shnichilik va mahalla munosabatlarini rivojlantirish, oilaviy qadriyatlarni asrash va jamiyatda tinchlik-totuvlikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu bois milliy marosimlarni faqat madaniy meros sifatida emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega ijtimoiy hodisa sifatida ham o'rganish muhimdir. Ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy urf-odatlari, an'analari va marosimlarining mohiyati, ularning tarbiyaviy ahamiyati hamda yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ilmiy tahlil qilinadi.

O'zbek xalqining milliy urf-odatlari va an'analari asrlar davomida shakllanib, boy ma'naviy meros sifatida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bu qadriyatlar xalqning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi va axloqiy qarashlarining ifodasidir. Har bir urf-odat va marosimda xalqning odob-axloq me'yorlari, xalq pedagogikasi hamda milliy tafakkur mujassamdir. Masalan, "Hashar" odati – birgalikda mehnat qilish, jamoaviylik va o'zaro yordam ko'rsatishning yorqin namunasi bo'lib, yoshlarni hamjihatlikka, mas'uliyat va ijtimoiy burchni his etishga o'rgatadi. Milliy marosimlar o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida alohida o'rin tutadi. Beshik to'yi bolaning dunyoga kelishi bilan bog'liq bo'lib, unda bolaning kelajagi, sog'ligi va baxt-saodati uchun tilaklar bildiriladi. Bu marosim yosh avlodni qadimiy udumlarni hurmat qilishga va oilaning ahamiyatini chuqur anglashga o'rgatadi. Fotiha to'yi esa ikki yoshning hayot yo'lini birlashtirishga tayyorlanishida ijtimoiy birlik va qarindoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqning eng qadimiy bayramlaridan biri – Navro'z – tabiat uyg'onishi, yangilanish va hosildorlik timsoli bo'lib, yoshlarga mehnatsevarlik, tabiatni asrab-avaylash va insonlar o'rtasida mehr-oqibatli bo'lish g'oyalarini singdiradi. Hayit marosimlari esa saxovat, mehr-shafqat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini mustahkamlaydi. Ushbu marosimlarda bolalar kattalardan duolar olib, ularga hurmat ko'rsatishni o'rganadi, bu esa ularning tarbiyasida muhim bosqichdir. Milliy an'ana va marosimlar orqali oila tarbiyasi mustahkamlanadi, mahalla va qo'shnichilik aloqalari rivojlanadi. Ayniqsa, mahalla instituti xalq hayotida katta ahamiyat kasb etib, o'zaro yordam, birdamlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy birlik tushunchasi aynan marosimlar orqali yanada mustahkamlanib, jamiyatda tinchlik va totuvlik qaror topadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, milliy marosimlar yoshlarda qadriyatlarni shakllantiradi, ya'ni ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantiradi. Masalan, "Osh berish" an'anasi nafaqat diniy marosim, balki saxovat, o'zaro yordam va jamoaviylikni targ'ib etuvchi hodisa sifatida ham tarbiyaviy ahamiyatga ega.





Milliy urf-odatlar va marosimlar – bu xalqning o'ziga xos pedagogik maktabidir. Unda xalqning ko'p asrlik tajribasi, axloqiy qarashlari va tarbiyaviy qadriyatlari mujassam bo'lgan. Shu bois, milliy an'ana va marosimlarni o'rganish yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ular orqali yoshlarda o'zbek milliy an'analari, urf-odatlar, qadriyatlar va Xalq pedagogikasi kabi tushunchalarning mazmuni chuqurroq anglashiladi.

O'zbek xalqining milliy urf-odatlari, an'analari va marosimlari xalq pedagogikasining ajralmas qismi hisoblanadi. Professor A. Qodirov o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, xalq pedagogikasi avlodlar tarbiyasida ijtimoiy tajriba va ma'naviy qadriyatlarni uzluksiz ravishda uzatish vositasidir. Shu bois, beshik to'yi, sunnat to'yi, fотиha to'yi kabi marosimlar nafaqat oilaviy udum, balki tarbiyaviy ahamiyatga ega ijtimoiy maktab sifatida qaraladi. M. Ochilov "Xalq pedagogikasi asoslari" asarida xalq urf-odatlari yoshlarning odob-axloqini shakllantirishda beqiyos o'rin tutishini qayd etadi. Unga ko'ra, o'zbek oilalarida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analalar — kattalarga hurmat, mehmondo'stlik, qo'ni-qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash — yoshlarni jamiyat hayotiga tayyorlashda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, professor Sh. Sharipov o'z maqolalarida milliy bayram va marosimlarning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi o'rnini tahlil qilib, ayniqsa Navro'z, Hayit marosimlari va hosil bayramlari jamiyatda ezgulik, bag'rikenglik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni kuchaytirishini ta'kidlaydi.

Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida N. Rahmonov shunday yozadi: "O'zbek xalqining an'ana va udumlari — bu tarixiy tajribani avlodlarga yetkazuvchi, yoshlarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob-axloq me'yorlari ruhida tarbiyalovchi omildir." Shu bilan birga, mahalla institutining milliy an'ana va marosimlardagi o'rnini alohida ahamiyatga ega. O. Karimova tadqiqotida mahalla odob-axloq maktabi sifatida har bir yoshning ijtimoiylashuvida beqiyos ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Masalan, to'y va bayramlarda qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash, bir-biriga yordam qo'lini cho'zish — yoshlarni insoniylik va hamjihatlik ruhida tarbiyalaydi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek xalqining milliy urf-odatlari, an'analari va marosimlarining tarbiyaviy ahamiyatini o'rganishda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ❖ Tarixiy-tahliliy metod – o'zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va marosimlari tarixiy manbalar, yozma adabiyotlar va xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'rganildi. Bu metod orqali marosimlarning kelib chiqishi va evolyutsiyasi tahlil qilindi.
- ❖ Qiyosiy metod – milliy urf-odat va marosimlar boshqa xalqlar an'analari bilan taqqoslandi, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, milliy xususiyatlar ko'rsatib berildi.





- ❖ Etnopedagogik yondashuv – marosim va udumlarning xalq pedagogikasidagi o'rne, yosh avlod tarbiyasidagi ta'siri tahlil qilindi. Ayniqsa, beshik to'yi, fотиha to'yi, Navro'z, hayit marosimlarining tarbiyaviy jihatlari chuqur o'rganildi.
- ❖ Sotsiologik kuzatish va suhbat metodlari – mahalla, oila va jamoa hayotida marosimlarning amalda qanday o'tkazilishi, ularning yoshlar tarbiyasiga ta'siri mahalliy kuzatuvlar, suhbatlar va hayotiy misollar orqali tahlil qilindi.
- ❖ Tahlil va umumlashtirish metodi – o'zbek olimlari (A. Qodirov, M. Ochilov, Sh. Sharipov, N. Rahmonov, O. Karimova) asarlari asosida milliy urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarildi.

O'zbek xalqining milliy urf-odatlari va an'analari shaxsning butun hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda bu an'analari insonning ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va shaxsiy fazilatlarining shakllanishida asosiy tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, to'y marosimlari, hayit bayramlari yoki mahalla udumlarida ishtirok etish yoshlarni mehr-oqibat, odob-axloq va birdamlik ruhida tarbiyalaydi. Kelajak nuqtai nazaridan qaralganda, milliy urf-odat va an'analari yosh avlod uchun ma'naviy tayanch bo'lib qoladi. Ular zamonaviy hayot talablariga mos ravishda yangilanib, jamiyatning ma'naviy birligi va barqarorligini ta'minlaydi. Shaxsning hayotida an'analari oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, vatanparvarlik, bag'rikenglik va insoniylikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, milliy urf-odat va an'analari nafaqat hozirgi hayotda, balki kelajak avlodlarning ma'naviy barkamolligida ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Ular shaxsni o'z milliy ildizlariga bog'lab, uni global o'zgarishlar jarayonida ham o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy boyliklarini asrab qolishga undaydi.

Xulosa: O'zbek xalqining milliy urf-odatlari va an'analari shaxsning butun hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda bu an'analari insonning ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashuvi va shaxsiy fazilatlarining shakllanishida asosiy tarbiyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, to'y marosimlari, hayit bayramlari yoki mahalla udumlarida ishtirok etish yoshlarni mehr-oqibat, odob-axloq va birdamlik ruhida tarbiyalaydi. Shunday qilib, milliy urf-odat va an'analari nafaqat hozirgi hayotda, balki kelajak avlodlarning ma'naviy barkamolligida ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Ular shaxsni o'z milliy ildizlariga bog'lab, uni global o'zgarishlar jarayonida ham o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy boyliklarini asrab qolishga undaydi. Hozirgi globallashuv davrida milliy urf-odat va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki chetdan kirib kelayotgan turli madaniy oqimlar yoshlar ongida milliylikni susaytirishi, o'zlikni yo'qotishga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliy qadriyatlarimiz yoshlarni





milliy ruhda tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik va odob-axloq me'yorlarini mustahkamlashda ishonchli tayanch vazifasini bajaradi. Xulosa qilib aytganda, milliy urf-odatlar va an'analar xalqning ma'naviy merosini asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga yetkazish, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda eng samarali vositalardan biridir. Ular shaxsning butun hayoti davomida unga hamroh bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'zbek xalqining milliy an'analari – bu faqatgina tarixiy boylik emas, balki kelajagimizni ham nurafshon qiluvchi tarbiyaviy maktabdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov A. Xalq pedagogikasi va tarbiya an'analari. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. Ochilov M. Xalq pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1996.
3. Sharipov Sh. Milliy qadriyatlar va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
4. Rahmonov N. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Universitet, 2010.
5. Karimova O. Mahalla va ijtimoiy tarbiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
6. Yo'ldoshev, J. G'. (2002). Ma'naviyat asoslari. Toshkent: Ma'naviyat.
7. Ochildiev, A. (2007). Oila tarbiyasi va milliy qadriyatlar. Toshkent: O'qituvchi.
8. G'ofurov, O. (2018). Xalq an'analari va ma'naviy meros. Toshkent: Fan va texnologiya.
9.
<https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/download/479/558/510>
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalqining-urf-odati-marosim-va-bayramlarining-an-anaviyligi/pdf>

